BOLALAR VA YOSHLAR UCHUN INSON HUQUQLARI TA'LIMI: GENDER TENGLIK, IQLIM O'ZGARISHI VA RAQAMLI INKLYUZIYA INTEGRATSIYALASHGAN YONDASHUVI

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti "xalqaro huquq" fakulteti 4-bosqich talabasi Maxambatqulova Sabrina Abulqosim qizi

Sabrinaabulqosimovna@icloud.com+998949315775

Annotatsiya: Mazkur maqolada bolalar va yoshlar uchun inson huquqlari ta'limini gender tenglik, iqlim o'zgarishi va raqamli inklyuziya yo'nalishlarining uyg'unligi asosida takomillashtirish masalasi tahlil qilinadi. Xalqaro hujjatlar, milliy qonunchilik va ilmiy adabiyotlarni qiyosiy-huquqiy hamda tizimli tahlil qilish orqali ushbu uch yo'nalishning umumiy huquqiy asosi bola huquqlari konsepsiyasi ekanligi asoslanadi. Tadqiqot natijasida mavjud ta'lim amaliyotidagi parchalanganlik, nazariy yo'nalganlik va yoshlar ishtirokining cheklanganligi kabi muammolar aniqlanib, ularni bartaraf etishga qaratilgan "Huquq – Yer – Raqam" nomli integratsiyalashgan o'quv modeli taklif etiladi.

Kalit so'zlar: inson huquqlari ta'limi, bola huquqlari, gender tenglik, iqlim adolati, raqamli inklyuziya, yoshlar ishtiroki, innovatsion pedagogika.

Аннотация. В статье рассматривается совершенствование образования в области прав человека для детей и молодёжи на основе взаимосвязи гендерного равенства, изменения климата и цифровой инклюзии. На основе сравнительно-правового и системного анализа международных документов, национального законодательства и научной литературы обосновывается, что общей правовой основой этих трёх направлений является концепция прав ребёнка. Выявлены проблемы фрагментарности, теоретической

направленности и ограниченного участия молодёжи, предложена интегрированная образовательная модель “Право – Земля – Цифра”.

Ключевые слова: образование в области прав человека, права ребёнка, гендерное равенство, климатическая справедливость, цифровая инклюзия, участие молодёжи.

Abstract. This article examines how human rights education for children and youth can be improved by integrating gender equality, climate change and digital inclusion. Through comparative-legal and systemic analysis of international instruments, national legislation and academic literature, it argues that the child rights framework is the common legal foundation of the three areas. The study identifies fragmentation, a theory-heavy approach and limited youth participation as key problems and proposes an integrated educational model, “Right – Earth – Digital” (“Huquq – Yer – Raqam”).

Keywords: human rights education, children’s rights, gender equality, climate justice, digital inclusion, youth participation.

XXI asrda bolalar va yoshlar jamiyat hayotida yuz berayotgan bir-biri bilan uzviy bog‘liq uchta muhim jarayon, gender tenglikka bo‘lgan munosabatning o‘zgarishi, iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq muammolarning kuchayishi va raqamli texnologiyalarning keng tarqalishi sharoitida voyaga yetmoqda. Ushbu jarayonlar inson huquqlariga bevosita ta’sir ko‘rsatib, ta’lim olish, kamsitilmaslik, sog‘lom atrof-muhitda yashash, axborotdan foydalanish va shaxsiy hayot daxlsizligi kabi huquqlarning ahamiyatini yanada oshirmoqda. Shu bois bolalar va yoshlarning huquqiy bilimlarini oshirish, ularda o‘z huquqlarini himoya qilish hamda boshqalarning huquqlariga hurmat bilan munosabatda bo‘lish ko‘nikmalarini shakllantirish ta’lim tizimining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Amaliyotda esa inson huquqlari ta’limi ko‘pincha qonun va huquqiy normalarni o‘rganish bilan

cheklanib qoladi. Gender tenglik, iqlim o‘zgarishi va raqamli xavfsizlik masalalari ham aksariyat hollarda bir-biridan alohida yoritiladi. Bunday yondashuv o‘quvchilarning olgan bilimlarini kundalik hayotda qo‘llash imkoniyatini cheklashi mumkin. Masalan, o‘quvchi o‘z huquqlarini bilgan holda ham internetdagi kiberbezorilikka qarshi qanday chora ko‘rishni, ekologik muammolarni hal qilishda qanday ishtirok etishni yoki gender stereotiplari bilan bog‘liq vaziyatlarda o‘z fikrini qanday himoya qilishni bilmasligi mumkin. Shuning uchun inson huquqlari ta’limini nazariy bilim berish bilan cheklamasdan, uni hayotiy vaziyatlar va amaliy mashg‘ulotlar bilan bog‘lash zarur. Mazkur ehtiyoj tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqotning maqsadi bolalar va yoshlar uchun inson huquqlari ta’limini gender tenglik, iqlim o‘zgarishi va raqamli inklyuziya yo‘nalishlari bilan uyg‘unlashtirishning ilmiy-metodik asoslarini o‘rganish hamda ushbu yo‘nalishlarni birlashtiruvchi amaliy ta’lim modelini taklif etishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun inson huquqlari ta’limining xalqaro va milliy huquqiy asoslarini tahlil qilish, uch yo‘nalishning o‘zaro bog‘liqligini aniqlash, mavjud muammolarni o‘rganish, shuningdek, integratsiyalashgan ta’lim modelini ishlab chiqish va uning samaradorligini baholash mezonlarini belgilash vazifalari qo‘yildi. **Tadqiqot obyekti** bolalar va yoshlar uchun inson huquqlari ta’limi jarayoni bo‘lsa, uning predmeti mazkur ta’limning mazmuni, metodlari va tashkil etish shakllaridan iborat. Maqolaning ilmiy yangiligi gender tenglik, iqlim o‘zgarishi va raqamli inklyuziya masalalarini alohida mavzular sifatida emas, balki yagona, inson huquqlariga asoslangan ta’lim yondashuvi doirasida o‘rganishni nazarda tutuvchi “Huquq – Yer – Raqam” modelining taklif etilishida namoyon bo‘ladi. Ushbu model orqali bolalar va yoshlarda nafaqat huquqiy bilimlarni, balki mustaqil fikrlash, mas’uliyatli qaror qabul qilish va jamiyat hayotida faol ishtirok etish ko‘nikmalarini ham rivojlantirish ko‘zda tutiladi.

Inson huquqlari ta’limining asosiy xalqaro huquqiy manbalaridan biri BMTning 2011-yilda qabul qilingan Inson huquqlari bo‘yicha ta’lim va tayyorgarlik to‘g‘risidagi Deklaratsiyasidir. Deklaratsiyada inson huquqlari ta’limining uchta muhim yo‘nalishi ko‘rsatilgan. **Birinchisi**, huquqlar to‘g‘risida ta’lim bo‘lib, bunda inson huquqlariga oid bilim va tushunchalar beriladi. **Ikkinchisi**, huquqlar orqali ta’lim, ya’ni o‘qitish jarayonining o‘zida ham inson huquqlariga hurmat bilan munosabatda bo‘lish. **Uchinchisi** esa huquqlar uchun ta’lim bo‘lib, u o‘quvchilarda o‘z huquqlarini va boshqalarning huquqlarini himoya qilish ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan. F. Tibbitts inson huquqlari ta’limining qadriyatlar va xabardorlik, javobgarlik hamda o‘zgartiruvchi model kabi uchta yondashuvini ajratib ko‘rsatadi. Uning fikricha, o‘zgartiruvchi model o‘quvchilarni nafaqat bilim oluvchi, balki jamiyatdagi ijobiy o‘zgarishlarda faol ishtirok etuvchi shaxs sifatida shakllantirishga yordam beradi. M. Bajaj esa inson huquqlari ta’limiga oid yondashuvlarni ularning mafkuraviy yo‘nalishi va qo‘llanilish sharoitlari asosida tahlil qilib, ta’limning amaliy muhit bilan bog‘liq bo‘lishi muhimligini ta’kidlaydi.

Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya (1989) bolalarning kamsitilmaslik, ta’lim olish, o‘z fikrini erkin bildirish va axborot olish huquqlarini belgilaydi. Shuningdek, Konvensiyada ta’limning maqsadlaridan biri bolalarda inson huquqlari va asosiy erkinliklariga hurmatni shakllantirish ekani qayd etilgan. L. Lundy Konvensiyaning 12-moddasini sharhlar ekan, bolalarga o‘z fikrini bildirish imkoniyatini berishning o‘zi yetarli emasligini ta’kidlaydi. Uning yondashuviga ko‘ra, bolaning fikri tinglanishi, tegishli auditoriyaga yetkazilishi va qarorlar qabul qilish jarayoniga ta’sir ko‘rsatishi uchun zarur sharoitlar yaratilishi lozim. R. Hart esa bolalar ishtirokining “zinapoya” modelini ishlab chiqib, bolalarning faqat tashqi ko‘rinishda ishtirok etishidan boshlab, haqiqiy hamkorlik va mustaqil ishtirokgacha bo‘lgan bosqichlarni izohlagan. Ushbu qarashlar bolalar va yoshlarni inson huquqlari ta’limiga faol jalb qilish usullarini ishlab chiqishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Gender tenglik masalasida Ayollarga nisbatan kamsitishning barcha shakllarini tugatish to‘g‘risidagi konvensiya **(CEDAW)** ta’limning kamsitishlarga qarshi kurashishdagi ahamiyatini e’tirof etadi. BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlarida ham ushbu masalalarga alohida o‘rin berilgan. Xususan, 4.7-vazifa inson huquqlari va gender tenglik bo‘yicha ta’limni rivojlantirishni nazarda tutadi, 5-maqsad gender tenglikka erishish, 13-maqsad esa iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashish bilan bog‘liq. S. Arora-Jonsson iqlim o‘zgarishi haqidagi munozaralarda ayollarni faqat zaif guruh vakillari yoki tabiatan ko‘proq mas’uliyatli shaxslar sifatida tasvirlash gender munosabatlarining murakkab jihatlarini yetarlicha ochib bermasligini ta’kidlaydi. Shu sababli u ayollar va iqlim o‘zgarishi o‘rtasidagi munosabatni soddalashtirilgan qarashlar asosida emas, balki mavjud ijtimoiy sharoitlarni hisobga olgan holda o‘rganish zarurligini asoslaydi.

Iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq ta’limning xalqaro huquqiy asoslaridan biri Parij kelishuvidir. Uning 12-moddasida ta’lim, o‘qitish va jamoatchilik ishtiroki iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashishning muhim tarkibiy qismlari sifatida belgilangan. BMT Bola huquqlari qo‘mitasining 2023-yilda qabul qilingan 26-sonli Umumiy izohida bolalar huquqlari va atrof-muhitni muhofaza qilish, xususan, iqlim o‘zgarishining bolalarga ta’siri o‘rtasidagi bog‘liqlik yoritilgan. **UNICEF** tomonidan ishlab chiqilgan Bolalar iqlim xavfi indeksi ham iqlim o‘zgarishi bolalarning hayoti, salomatligi, ta’lim olishi va boshqa huquqlariga jiddiy ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatadi. Shu bois iqlim ta’limini faqat tabiatni asrashga oid bilimlar bilan cheklamasdan, uni bolalar huquqlari va ijtimoiy adolat masalalari bilan birgalikda o‘rgatish maqsadga muvofiq.

Raqamli muhitda bolalar huquqlarini ta’minlash masalasi ham xalqaro miqyosda alohida ahamiyat kasb etmoqda. BMT Bola huquqlari qo‘mitasining 2021-yildagi 25-sonli Umumiy izohi Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyada belgilangan huquqlarning raqamli muhitda qanday ta’minlanishi kerakligini tushuntiradi. Unda davlatlarning bolalar uchun raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish va ularning huquqlarini raqamli makonda

ham himoya qilish bo‘yicha majburiyatlariga e’tibor qaratilgan. S. Livingstone va A. Third raqamli asrda bola huquqlarini ta’minlashda himoya, ishtirok etish va imkoniyatlardan foydalanish o‘rtasidagi muvozanat muhimligini ta’kidlaydi. J. van Dijk raqamli tafovutni faqat internet yoki qurilmalardan foydalanish imkoniyati bilan izohlash yetarli emasligini, bunda foydalanuvchilarning motivatsiyasi, ko‘nikmalari va texnologiyalardan foydalanish usullari ham muhimligini ko‘rsatadi. E. Hargittai esa internetdan foydalanish ko‘nikmalaridagi farqlarni «ikkinchi darajali raqamli tafovut» tushunchasi orqali izohlagan. Ushbu yondashuvlar raqamli inklyuziya nafaqat texnologiyalarga kirish, balki ulardan samarali va xavfsiz foydalanish imkoniyatlarini ham qamrab olishi kerakligini ko‘rsatadi.

O‘zbekistonda bolalar va yoshlarning huquqlarini ta’minlash, gender tenglikni rivojlantirish hamda raqamli imkoniyatlarni kengaytirish bilan bog‘liq munosabatlar bir qator qonunchilik hujjatlari orqali tartibga solinadi. Jumladan, **“Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”**gi, **“Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”**gi, **“Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”**gi qonunlar va **“Raqamli O‘zbekiston — 2030”** strategiyasi ushbu yo‘nalishlarning huquqiy asoslarini tashkil etadi. Biroq ko‘rib chiqilgan ilmiy manbalar va huquqiy hujjatlar tahlili gender tenglik, iqlim o‘zgarishi va raqamli inklyuziyani inson huquqlari ta’limining yagona, o‘zaro bog‘liq tizimi sifatida o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi. Mazkur maqola aynan shu masalani yoritish va integratsiyalashgan yondashuvni taklif etishga qaratilgan.

Mazkur tadqiqot sifat yondashuviga asoslangan bo‘lib, nazariy va konseptual xususiyatga ega. Tadqiqot davomida xalqaro shartnomalar, BMT qo‘mitalarining umumiy izohlari hamda O‘zbekiston milliy qonunchiligi hujjatlarni tahlil qilish usuli orqali o‘rganildi. Qiyosiy-huquqiy usul yordamida xalqaro standartlar va milliy qonunchilikning umumiy hamda o‘ziga xos jihatlari aniqlandi. Tizimli yondashuv orqali esa gender tenglik, iqlim o‘zgarishi va raqamli inklyuziya inson huquqlari ta’limining o‘zaro bog‘liq tarkibiy qismlari sifatida ko‘rib chiqildi. Bundan tashqari, ilmiy adabiyotlar mazmuniy tahlil qilinib, ularda ilgari surilgan asosiy g‘oyalar

umumlashtirildi. Olingan natijalar asosida modellashtirish usuli yordamida uch yo‘nalishni birlashtiruvchi o‘quv modeli ishlab chiqildi. Shu bilan birga, tadqiqot doirasida so‘rovnoma, intervyu yoki tajriba kabi usullar orqali birlamchi empirik ma’lumotlar to‘planmaganini qayd etish lozim. Shu sababli taklif etilayotgan model hozircha nazariy-konseptual xususiyatga ega. Uning amaliy samaradorligini aniqlash uchun kelgusida ta’lim muassasalarida pilot sinovlar o‘tkazish, natijalarni baholash va zarur hollarda modelni takomillashtirish talab etiladi. Mazkur cheklov tadqiqot natijalarini baholashda e’tiborga olinishi kerak.

Tahlil natijalari gender tenglik, iqlim o‘zgarishi va raqamli inklyuziyani bir-biridan ajratilgan masalalar sifatida emas, balki bola huquqlari doirasida o‘zaro bog‘liq yo‘nalishlar sifatida o‘rganish zarurligini ko‘rsatdi. Ularning har biri bolalar va yoshlarning huquqlaridan foydalanishi, ta’lim olishi va jamiyat hayotida ishtirok etishiga bevosita yoki bilvosita ta’sir ko‘rsatadi.

Gender tenglik ta’lim sohasida, avvalo, ta’lim olish imkoniyatlari va ta’lim mazmunida namoyon bo‘ladi. Masalan, darsliklarda uchraydigan stereotip obrazlar, kasb tanlashga nisbatan shakllangan ijtimoiy qarashlar, qiz bolalarning aniq fanlar va texnologiyalar sohasida ishtirok etishi, shuningdek, o‘g‘il bolalarning his-tuyg‘ularini erkin ifodalash imkoniyati inson huquqlari nuqtayi nazaridan tahlil qilinishi kerak. Gender tenglikni faqat qizlarning huquqlari bilan bog‘liq masala sifatida ko‘rish to‘g‘ri emas. Aksincha, u barcha bolalarning stereotiplardan xoli holda o‘z qobiliyatlarini rivojlantirish va kelajakdagi yo‘lini mustaqil tanlash imkoniyatini ta’minlashni anglatadi. Bunday yondashuv ta’lim muhitining yanada inklyuziv bo‘lishiga yordam beradi.

Iqlim o‘zgarishi bolalar va yoshlarning bugungi hayotiga ham, kelajagiga ham ta’sir ko‘rsatadi. Ular iqlim o‘zgarishining oqibatlari bilan uzoq vaqt davomida yashashiga to‘g‘ri kelishi mumkin, biroq iqlimga oid qarorlarni qabul qilish jarayonlarida ularning ishtiroki har doim ham yetarli darajada ta’minlanmaydi. Bu holat avlodlararo adolat masalasini yuzaga keltiradi. BMT Bosh Assambleyasining 2022-yilda sog‘lom va barqaror atrof-muhitga bo‘lgan huquqni tan olgan

rezolyutsiyasi ekologik muammolarni inson huquqlari bilan bog‘liq holda o‘rganish muhimligini yanada kuchaytiradi. Shu sababli iqlim ta’limi faqat ekologik bilimlarni berish bilan cheklanmasdan, insonning sog‘lom atrof-muhitga bo‘lgan huquqi, jamoatchilik ishtiroki va kelajak avlodlar manfaatlarini ham qamrab olishi lozim.

Bu masala Markaziy Osiyo, xususan, O‘zbekiston uchun ham dolzarbdir. Orol dengizi inqirozi, suv resurslarining cheklanganligi va cho‘llanish kabi muammolar iqlim o‘zgarishining mahalliy aholi hayotiga ta’sirini yaqqol namoyon etadi. Shu bilan birga, iqlim o‘zgarishining oqibatlari turli ijtimoiy guruhlarga bir xil ta’sir ko‘rsatmaydi. Masalan, ayrim qishloq hududlarida suv ta’minoti va uy xo‘jaligi bilan bog‘liq mas’uliyatning katta qismi ayollar va qizlar zimmasiga tushishi mumkin. Shuning uchun iqlim o‘zgarishini gender tenglik masalasi bilan birgalikda o‘rganish muhim hisoblanadi.

Raqamli inklyuziya esa bolalar va yoshlarning jinsi, yashash joyi, oilaviy daromadi yoki nogironligidan qat’i nazar, raqamli texnologiyalardan teng, samarali va xavfsiz foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lishini anglatadi. Bu tushuncha, bir tomondan, qurilma va internetga kirish imkoniyatini, ikkinchi tomondan esa raqamli savodxonlik, axborotni tahlil qilish va internetdan xavfsiz foydalanish ko‘nikmalarini qamrab oladi. Raqamli muhit bilim olish, muloqot qilish va o‘z fikrini bildirish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Biroq unda kiberbezorilik, shaxsiy ma’lumotlardan noqonuniy foydalanish, noto‘g‘ri axborot tarqalishi va algoritmik kamsitish kabi xavflar ham mavjud. Shahar va qishloq hududlarida yashovchi bolalar, shuningdek, qizlar va o‘g‘il bolalar o‘rtasidagi raqamli imkoniyatlar farqi ushbu muammolarni yanada murakkablashtirishi mumkin.

Uchala yo‘nalishning o‘zaro kesishishi bir nechta holatda namoyon bo‘ladi. Gender tenglik va raqamli inklyuziya kesishgan nuqtada qiz bolalarning texnologiya sohasiga jalb etilishi, raqamli ko‘nikmalarini rivojlantirishi va internetdagi genderga asoslangan zo‘ravonlikdan himoyalanishi muhim ahamiyatga ega. Iqlim o‘zgarishi va raqamli texnologiyalar o‘rtasidagi bog‘liqlik esa iqlim ma’lumotlarini tahlil qilish, ekologik muammolar haqida ishonchli axborot tarqatish va yoshlarning

ekologik tashabbuslarda ishtirok etishi uchun imkoniyat yaratadi. Gender tenglik va iqlim o‘zgarishi kesishgan holatlarda esa iqlim oqibatlarining turli guruhlarga ta’siri, shuningdek, ayollar va yoshlarning ekologik muammolarni hal qilishdagi ishtiroki muhim o‘rin tutadi. Demak, uchala yo‘nalishni birlashtiruvchi umumiy asos sifatida kamsitilmaslik, axborot olish va qarorlar qabul qilishda ishtirok etish huquqlarini ko‘rsatish mumkin.

Tahlil natijasida inson huquqlari ta’limini tashkil etishda e’tibor qaratish lozim bo‘lgan bir nechta muammo aniqlandi.

Birinchidan, gender tenglik, iqlim o‘zgarishi va raqamli xavfsizlik masalalari ko‘pincha turli fanlar yoki alohida tadbirlar doirasida yoritiladi. Natijada o‘quvchilar ushbu mavzularning o‘zaro bog‘liqligini to‘liq anglamasligi mumkin.

Ikkinchidan, ta’lim jarayonida ma’ruza qilish va ma’lumotlarni yodlashga ortiqcha e’tibor berilishi amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish imkoniyatlarini cheklaydi. F. Tibbitts ta’riflagan o‘zgartiruvchi model nuqtayi nazaridan qaralganda, o‘quvchilar faqat huquqlar haqida ma’lumot olish bilan cheklanmasdan, mavjud muammolarni aniqlash, ularni tahlil qilish va yechim taklif etishda ham ishtirok etishi kerak.

Uchinchidan, pedagoglar uchun genderga sezgir yondashuv, iqlim ta’limi va raqamli xavfsizlikni birlashtirgan metodik materiallar hamda malaka oshirish imkoniyatlarini rivojlantirish zarurati mavjud. To‘rtinchidan, chekka hududlarda yashovchi yoki ijtimoiy jihatdan zaif guruhlarga mansub bolalar uchun internet, raqamli qurilmalar va sifatli ta’lim resurslaridan foydalanish imkoniyatlari cheklangan bo‘lishi mumkin.

To‘rtinchidan, bolalar va yoshlar o‘zlariga taalluqli masalalarni muhokama qilish jarayonlarida ba’zan faqat tinglovchi yoki kuzatuvchi sifatida qatnashadi. L. Lundy yondashuvida ta’kidlanganidek, ularning fikrini bildirish, tinglanish, tegishli auditoriyaga murojaat qilish va qarorlar qabul qilinishiga ta’sir ko‘rsatish imkoniyatlari ham ta’minlanishi lozim. Nihoyat, inson huquqlari ta’limining samaradorligini baholash uchun aniq va amaliy mezonlarga ehtiyoj mavjud.

O‘quvchilarning huquqiy bilimlari bilan bir qatorda, tanqidiy fikrlash, kamsitish holatlarini aniqlash, raqamli xavfsizlik qoidalariga rioya qilish va jamoat tashabbuslarida ishtirok etish ko‘nikmalarini ham baholash muhimdir. Ushbu muammolar gender tenglik, iqlim o‘zgarishi va raqamli inklyuziyani yagona ta’lim yondashuvi zarur. Ushbu muammolarni hal etish uchun inson huquqlari ta’limini uch tayanch ustun orqali birlashtiruvchi **“Huquq – Yer – Raqam”** modeli taklif etiladi. **“Huquq”** komponenti gender tenglik va kamsitilmaslik, **“Yer”** komponenti iqlim adolati va ekologik huquqlar, **“Raqam”** komponenti esa raqamli inklyuziya va xavfsizlikni qamrab oladi. Modelning ishlash mantiqi “o‘rganish, ishtirok etish, harakat qilish” tsikliga asoslanadi va BMT Deklaratsiyasidagi huquqlar to‘g‘risida, huquqlar orqali hamda huquqlar uchun ta’lim o‘lchamlariga mos keladi.

Modelning tamoyillari quyidagilardan iborat. Birinchi tamoyil huquqqa asoslangan yondashuv bo‘lib, unga ko‘ra bola ta’lim obyekti emas, huquq egasi sifatida ko‘riladi. Ikkinchi tamoyil gender-sezgirlikni talab qilib, barcha o‘quv materiallarining stereotiplardan xoli bo‘lishini nazarda tutadi. Uchinchi tamoyil loyihaviy o‘qitish bo‘lib, o‘quvchilar real jamoaviy muammolarni hal qilish jarayonida bilim va ko‘nikma egallaydi. To‘rtinchi tamoyil tengdoshlar ta’limi hisoblanadi, bunda yuqori sinf o‘quvchilari va yoshlar yetakchilari ustoz sifatida ishtirok etadi. Beshinchi tamoyil inklyuzivlik bo‘lib, nogironligi bo‘lgan, chekka hududlardagi va ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar uchun moslashtirilgan format yaratilishini nazarda tutadi. Oltinchi tamoyil maktab, oila, mahalla, fuqarolik jamiyati va xususiy sektor hamkorligini ta’minlashdir. Modelning mazmuni oltita ketma-ket modul orqali amalga oshiriladi. Birinchi modul bola huquqlari, kamsitilmaslik va fikr bildirish erkinligiga bag‘ishlanib, rolli o‘yinlar va keys-tahlil usullaridan foydalanadi. Ikkinchi modul gender stereotiplar, kasb tanlash va hurmatli muloqotni munozara, darslik va media mahsulotlarini tahlil qilish orqali o‘rgatadi. Uchinchi modul iqlim adolati, mahalliy ekologik muammolar va barqaror odatlarni maktabning ekologik auditi loyihasi misolida ko‘rib chiqadi. To‘rtinchi modul shaxsiy ma’lumotlar himoyasi, kiberbezorilik va noto‘g‘ri axborotga qarshi

kurashni simulyatsiya va faktlarni tekshirish mashg‘ulotlari orqali shakllantiradi. Beshinchi modul raqamli inklyuziya, yordamchi texnologiyalar va qizlarning texnologiya sohalariga jalb etilishini dasturlash va dizayn ustaxonalarida amalga oshiradi. Oltinchi modulda o‘quvchilar uch yo‘nalishni birlashtirgan yakuniy jamoaviy tashabbusni ishlab chiqadi va jamoatchilik oldida taqdim etadi. Modelning innovatsion jihati o‘zbek, rus va qoraqalpoq tillarida ochiq o‘quv platformasi yaratilishidir. Unda interaktiv darslar, o‘z-o‘zini baholash topshiriqlari, o‘qituvchilar uchun metodik to‘plam, yoshlar tashabbuslarini joylashtirish bo‘limi va anonim maslahat imkoniyati bo‘lishi mumkin. Platforma past tezlikdagi internetda ham ishlashi va oflayn rejimni qo‘llab-quvvatlashi zarur, chunki aks holda u raqamli inklyuziya tamoyilining o‘ziga zid bo‘lib qoladi.

Modelni joriy etish to‘rt bosqichda tavsiya etiladi. Dastlabki uch oylik tayyorgarlik bosqichida ehtiyojlar baholanadi, o‘quv dasturi ishlab chiqiladi va o‘qituvchi-trenerlar tayyorlanadi. Keyingi to‘qqiz oy davomida shahar, qishloq va chekka tumanlardagi tanlangan maktablar hamda yoshlar markazlarida pilot sinov o‘tkaziladi. Bir yillik tsiklning oxirida natijalar tahlil qilinib, model takomillashtiriladi. Samarali deb topilgan taqdirda model boshqa hududlarga tatbiq etiladi va tegishli idoralar hamda hamkor tashkilotlar bilan hamkorlikda institutsionallashtiriladi. Model samaradorligi sifat va miqdor ko‘rsatkichlari orqali baholanadi: o‘quvchilarning inson huquqlari va uch yo‘nalish bo‘yicha bilimlarining boshlang‘ich va yakuniy test natijalari bo‘yicha o‘zgarishi; gender stereotiplar, iqlim va raqamli xavflarga munosabatni o‘lchovchi so‘rovnomalar; loyiha ishlari sifati va axborotni tanqidiy baholash ko‘nikmalari; amalga oshirilgan jamoaviy tashabbuslar soni va ularning mahalladagi ta’siri; ishtirokchilar orasida qizlar, chekka hudud vakillari va nogironligi bo‘lgan bolalar ulushi; hamda malakasi oshirilgan pedagoglar soni va ularning qoniqish darajasi. Ko‘rsatkichlarning aniq maqsadli qiymatlari loyiha miqyosi va tanlov shartlariga qarab belgilanadi. Modelni joriy etishda pedagoglar tayyorgarligining yetarli emasligi, oilalar va jamoalarning mavzularga turlicha munosabati, bolalar shaxsiy ma’lumotlarining xavfsizligi

hamda moliyaviy barqarorlik xavflari yuzaga kelishi mumkin. Birinchi xavfni amaliy trening va tayyor metodik to‘plam, ikkinchisini ota-onalar bilan ochiq muloqot va qonunchilikka asoslangan, madaniy jihatdan sezgir yondashuv, uchinchisini bolalar ma’lumotlarini himoya qilish siyosati va anonimlashtirish, to‘rtinchisini esa davlat, xalqaro va xususiy hamkorlar ishtirokidagi uzoq muddatli moliyalashtirish rejasi orqali kamaytirish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, tadqiqot natijalari gender tenglik, iqlim o‘zgarishi va raqamli inklyuziya bolalar va yoshlar uchun inson huquqlari ta’limining o‘zaro bog‘liq yo‘nalishlari ekanini ko‘rsatdi. Ularning umumiy huquqiy asosini bola huquqlari konsepsiyasi, jumladan, kamsitilmaslik, ta’lim olish, axborot olish va fikr bildirishda ishtirok etish huquqlari tashkil etadi. Mavjud amaliyotdagi parchalanganlik, nazariy yo‘nalganlik, pedagoglar tayyorgarligidagi bo‘shliqlar, raqamli va hududiy tafovut hamda yoshlar ishtirokining cheklanganligi bu yo‘nalishlarni yagona tizimda o‘qitish zarurligini asoslaydi. Taklif etilgan **“Huquq – Yer – Raqam”** modeli huquqqa asoslangan yondashuv, loyihaviy o‘qitish, tengdoshlar ta’limi va raqamli innovatsiyalarni uyg‘unlashtirib, ushbu zaruratni amaliy darajada hal etish imkonini beradi. Quyidagi tavsiyalar ilgari suriladi: inson huquqlari ta’limi dasturlarida uchala yo‘nalishni yagona mazmun doirasida berish, o‘qituvchilar uchun maxsus malaka oshirish va metodik materiallarni ishlab chiqish, chekka hududlar uchun oflayn rejimda ishlovchi raqamli resurslarni yaratish, o‘quvchilarning tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlovchi ishtirok mexanizmlarini joriy etish; hamda ta’lim natijalarini o‘lchash uchun aniq ko‘rsatkichlar tizimini shakllantirish. Kelgusidagi tadqiqotlarda modelning pilot natijalarini empirik tarzda o‘rganish va uning samaradorligini miqdoriy jihatdan asoslash maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. BMT. Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya. 1989. https://www.ohchr.org/en/instruments-mechanisms/instruments/convention-rights-child

2. BMT. Ayollarga nisbatan kamsitishning barcha shakllarini tugatish to‘g‘risidagi konvensiya (CEDAW). 1979.https://www.ohchr.org/en/instruments-mechanisms/instruments/convention-elimination-all-forms-discrimination-against-women
3. https://www.ohchr.org/en/instruments-mechanisms/instruments/convention-elimination-all-forms-discrimination-against-women
4. BMT. Inson huquqlari bo‘yicha ta’lim va tayyorgarlik to‘g‘risidagi deklaratsiya. 2011. https://www.ohchr.org/en/resources/educators/human-rights-education-training
5. BMT. Parij kelishuvi. 2015. https://unfccc.int/process-and-meetings/the-paris-agreement
6. BMT Bola huquqlari qo‘mitasi. 25-sonli Umumiy izoh: raqamli muhitda bola huquqlari. 2021.https://www.ohchr.org/en/documents/general-comments-and-recommendations/general-comment-no-25-2021-childrens-rights
7. https://www.ohchr.org/en/documents/general-comments-and-recommendations/general-comment-no-25-2021-childrens-rights
8. Lundy, L. “Voice” Is Not Enough: Conceptualising Article 12 of the United Nations Convention on the Rights of the Child. British Educational Research Journal, 33(6), 927–942. 2007.https://doi.org/10.1080/01411920701657033
9. https://doi.org/10.1080/01411920701657033
10. Arora-Jonsson, S. Virtue and Vulnerability: Discourses on Women, Gender and Climate Change. Global Environmental Change, 21(2), 744–751. 2011.https://doi.org/10.1016/j.gloenvcha.2011.01.005
11. https://doi.org/10.1016/j.gloenvcha.2011.01.005
12. O‘zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘RQ-562, 2019-yil 2-sentabr.https://lex.uz/uz/docs/-4494849

13.https://lex.uz/uz/docs/-4494849